ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BOBUR
NOMIDAGI ANDIJON
DAVLAT UNIVERSITETI

ANDIJAN STATE
UNIVERSITY NAMED
AFTER ZAKHIRIDDIN
MUKHAMMAD BABUR

ILMIY XABARNOMA

Seriya: Pedagogik tadqiqotlar

SCIENTIFIC BULLETIN

Series: Pedagogical Research

2023 / 2 (70)

Andijon
2023-yil

ILMIY XABARNOMA
Seriya: Pedagogik tadqiqotlar

SCIENTIFIC BULLETIN
Series: Pedagogical Research

Muassis:
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Jurnal bir yilda 8 marta (seriya 2 marta) chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 17-avgustda 1097 raqami bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi: 344

Nashr uchun mas’ul:
D.Ne’matova

Jurnal falsafa, tarix, filologiya, pedagogika va biologiya fanlari bo‘yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar e’lon qilinishi lozim bo‘lgan nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Bosishga ruxsat etildi: 26.08.2023
Qog‘oz bichimi: 70x100
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 9,8
Nashr bosma tabog‘i 6,2
Adadi: 200 dona.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №:190

“KANS OFFICE” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.
Andijon shahri, Xarabek ko‘chasi, 104

Tahrir hay’ati raisi:

Azimova Ziyoda Ergashevna – pedagogika fanlari doktori (Andijon, O‘zbekiston)

Tahrir hay’ati

Quronov Muhammadjon – pedagogika fanlari doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

Yusupova Shoxida Jaloliddinovna – pedagogika fanlari doktori, professor (Andijon, O‘zbekiston)

Xaydarov Mamatjon Eshqulovich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent,O‘zbekiston)

Jumayev Mamanazar Irgashevich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

Isayev Ilya Fyodorovich – pedagogika fanlari doktori, professor (Belgorod, Rossiya)

Gülgün Bangir Alpan – pedagogika fanlari doktori, professor (Anqara, Turkiya)

Asuka Kavano – pedagogika fanlari doktori (PhD) (Nagoya, Yaponiya)

Aliyeva Shahlo – pedagogika fanlari doktori (Boku, Ozarbayjon)

Jumabayeva Aziya Eleupanovna – pedagogika fanlari doktori, professor (Ostana, Qozog‘iston)

Artikova Muhayyo Botiraliyevna – pedagogika fanlari doktori (Andijon, O‘zbekiston)

Bichurina Seimbika Usmonovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (Kazan, Rossiya)

Muharrir:

D.H. Quronov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahririyat manzili:
170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129, Telefon: +998911602043. Faks: (374) 223-88-30
E-mail: adu_xabarnoma@mail.ru Rasmiy sayt: www.xabarnoma.adu.uz

MUNDARIJA

Pedagogika nazariyasi

U.J. HASANOV
Talabalarda axborot-texnologik kompetensiyani rivojlantirish muammosi.....5

M.A. SOBIROVA
O‘zbek xalqi etnomadaniyati va islom dini manbalarida tarbiya mavzusining yoritilishi...16

Sh.Sh. XUDAYBERGANOV
Global ta’lim va uning akademik erkinlik bilan bog‘liq jihatlari.....25

M.Sh. RAHMONOV
Mustaqil ta’lim olishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari (CourseLab dasturi misolida).....33

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Ф.Ш.АЛИМОВ, Р.А.ФАХРУТДИНОВА
Компетентностный подход в преподавании английского языка как концептуальная основа новой парадигмы образования.....41

P.M. JALOLOVA
Atom fizikasini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasi.....51

A.A. XUDAYBERDIYEV
Jadid matbuoti va darsliklarida *vatan* mavzusining yoritilishi.....59

KICHIK XABARLAR

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

A. HAKIMOV
Biofizika fanini o‘qitish metodikasini kreativ yondashuv asosida takomillashtirish.....71

Pedagogika nazariyasi

A.V. UMAROV
Bo‘lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....77

CONTENTS

Theory of pedagogy

U.J. KHASANOV
The problem of developing students' information technological competence.....5

M.A. SABIROVA
Coverage of the topic of education in the ethnic culture of the Uzbek people and the sources of the islamic religion.....16

Sh.Sh. XUDAYBERGANOV
Global education and its aspects related to academic freedom.....25

M.Sh. RAHMONOV
Didactic principles of use of innovative technologies in independent education (Courselab example).....33

Theory and methods of education and upbringing

F.Sh. ALIMOV, R.A. FAKHRUTDINOVA
Component approach in teaching foreign languages as a conceptual basis of a new paradigm of education.....41

P.M. JALOLOVA
Methodology of application of digital technologies in teaching exact sciences.....51

A.A. KHUDAYBERDIYEV
The coverage of homeland topic in Uzbek jadids press and textbooks.....59

SHORT SUBMISSIONS

Theory and methods of education and upbringing

A. HAKIMOV
Improving the methodology of teaching biophysics on the basis of a creative approach...71

Theory of pedagogy

A.V. UMAROV
Theoretical and pedagogical foundations for the development of media culture in future engineering pedagogists.....77

UO‘K 378.091:001

GLOBAL TA’LIM VA UNING AKADEMIK ERKINLIK BILAN BOG‘LIQ JIHATLARI

Sh.Sh. Xudayberganov

Maqolada bozor iqtisodiyoti ta’lim jarayonlariga ta’sir etib, oliy ta’lim muassasalarini mablag‘ topishga undashi, bozor iqtisodiyotiga moslashish va akademik erkinlik o‘zaro aloqador hodisa ekanligi ko‘rib chiqilgan. Oliy ta’lim muassasalaridagi sotsiopedagogik jarayonlarni amaliyotga integratsiyalash talabi hamda ta’limning antropopedagogik asoslarini aniqlash bilan bog‘liq jihatlari o‘rganilgan. Global ta’lim xalqaro integratsiya va xalqlarning bir-birlariga yaqinlashuvini ta’minlashi, dunyoqarashlarni modernizatsiyalashga imkon berishi masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *bozor iqtisodiyoti, akademik erkinlik, global ta’lim, moliyaviy mustaqillik, siyosiy erkinlik, iqtisodiy erkinlik.*

В статье рассматривается, что рыночная экономика влияет на образовательные процессы и побуждает высшие учебные заведения к поиску средств, адаптация к рыночной экономике и академическая свобода являются взаимосвязанными явлениями. Изучена необходимость интеграции социально-педагогических процессов в высшей школе в практику и аспекты, связанные с определением антропо-педагогических основ образования. Проанализирован вопрос глобального образования, обеспечивающего международную интеграцию и сближение народов, позволяющего модернизировать мировоззрения.

Ключевые слова: *рыночная экономика, академическая свобода, глобальное образование, академическая автономия, финансовая самостоятельность, политическая свобода, экономическая свобода.*

KIRISH

Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv va integratsiya ta’lim tizimini ham qamrab olgan. Aslida globallashuv va integratsiya nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga, shuningdek, ilm-fan, ta’lim, kreativ shaxsni shakllantirish, ma’rifiy ishlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlarda, asosan, e’tibor ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga qaratilsa-da, globallashuv va integratsiya ta’lim sohasidagi jarayonlarga ham ta’sir etib, global ta’lim muhitini shakllantirmoqda. To‘g‘ri, akademik erkinlik g‘oyasi globallashuv jarayonlaridan ilgari paydo bo‘lgan, ammo o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan globallashuv va integratsiya ta’lim tizimlarini, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini, universitetlardagi sotsiopedagogik tajribalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida qayta tashkil etishga olib keldi. Bu jarayonga AQSh va Yevropa ta’lim tizimi, universitetlari tajribasi asos qilib olindi. Natijada g‘arb ta’lim modeli global voqelik sifatida qaraladigan bo‘ldi. Xalqaro tashkilotlar tomondan ishlab chiqilgan reytinglar ilmiy ishlarga va universitetlar faoliyatiga beriladigan baholar ana shu mezonlarga muvofiq bo‘lishi tartibi shakllandi.

Xorijiy tajribalarni o‘rgangan olimlar universitetlardagi global ta’lim va akademik erkinlikni turlicha baholashadi. Ba’zi tadqiqotchilar ularni *“haqiqatni izlash”* kabi falsafiy konsepsiyaga muvofiq baholash tarafdorlaridir. Global ta’lim va akademik erkinlik shunchaki bilim olish yoki bilim berishni tashkil etish emas, u insonga xos bo‘lgan falsafiy voqelik *“haqiqatni izlash”* istagi bilan bog‘liqdir [1. Б. 52]. Bu o‘rinda haqiqatni keng ma’noda, *“ekzistensial ehtiyoj”* (A.Maslou iborasi) tarzida tushunmoq kerak. Ilm-fan, aqliy izlanishlarning

barchasi haqiqat izlaydi, uni topishga intiladi, hatto unga yetish mumkin emasligini bilgan taqdirda ham ular haqiqatni izlashdan to‘xtamaydi. Insonga xos ushbu *“ekzistensial ehtiyoj”*ni nazarda tutish sotsiopedagogik jarayonlarni tashkil etish va olib borish uchun ham muhimdir. Akademik erkinlik va “amerika modeli”ning jahon ta’lim tizimiga ta’siri borasidagi qarashlarni maxsus o‘rgangan K.Keytning yozishicha, bu model erkin darslar o‘tish, mustaqil tarzda tadqiqotlar olib borish, mavzu va muammolarni erkin tarzda muhokama qilish, har kimning fikr va e’tirozlarini eshitish, ta’lim jarayonini ochiq, demokratik qilish kabi jihatlari bilan global ta’limga ta’sir o‘tkazmoqda [2. Б. 56].

MATERIAL VA METODLAR

Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlari talabalari ongida akademik erkinlik g‘oyasini shakllantirish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada zamonaviy didaktik ta’minot vositasida bo‘lajak pedagog kadrlar ongida akademik erkinlik tushunchasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganib chiqildi. Muammoni o‘rganishda xorijiy oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan akademik erkinlik, moliyaviy mustaqillik tushunchalari, ularni qo‘llash usullari, yondashuvlari, mezonlari va bosqichlari tayanch konsepsiya vazifasini bajardi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Bozor iqtisodiyoti global ta’lim jarayonlariga ta’sir etib, oliy ta’lim muassasalarini mablag‘ topishga undadi. Natijada bozor iqtisodiyoti, mablag‘ topish bilan akademik erkinlik uyg‘un qaraladigan bo‘ldi. OTMlar sotsiopedagogik jarayonlarini amaliyotga integratsiyalash talabi esa ushbu yondashuvning bir shakli edi [3. Б. 11]. Global ta’lim hali shakllanmagan bo‘lsa-da, universitetlarning bugungi rivoji OTMlar oldiga ma’lum bir talablar qo‘yayotganini ko‘rmaslik mumkin emas. Bu o‘rinda tobora umumiy xususiyat kasb etib borayotgan jihatlar quyidagilardir:

1) bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq universitetlarga o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash imkonini berish;

2) ta’lim va kadrlar tayyorlashni bozor konyunkturasiga muvofiqlashtirish;

3) universitetlarga dars jadvallarini, soatlar taqsimotini va qanday kasb-korga o‘rgatishni mustaqil tarzda belgilash huquqini berish;

4) professor va talaba o‘rtasidagi munosabatlarni tobora erkinlashtirish, ular o‘rtasidagi to‘siqlarni minimallashtirish;

5) universitetning ichki (ilmiy kengash, fakultetlar kengashi) va tashqi (jamoatchilik kengashi, vasiylar va homiylar kengashi, fuqarolik jamiyati institutlari) nazoratda bo‘lishiga erishish;

6) universitetlarning davlat hokimiyati, boshqaruv organlari bilan o‘rnatiladigan aloqalari doirasi va funksiyalarini qaytadan ko‘rib chiqish;

7) universitetlarning xalqaro tashkilotlari va uyushmalarini, asotsiatsiyalarini tashkil etish orqali ular mustaqilligini himoya qilishning global mexanizmlarini yaratish.

Tadqiqotchilarning fikricha, OTMlar bozor iqtisodiyotidan tashqarida turolmaydi, jamiyatda qaror topgan bozor demokratiyasi o‘z navbatida ta’lim, ayniqsa, oliy ta’lim, kadrlar tayyorlash tizimiga ta’sir etmay qolmaydi. Xalq xo‘jaligi, ijtimoiy sohalarga zarur oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash bilan band OTMlar jamiyat talablaridan kelib chiqadi, har bir kadrni ana shu talablarga yo‘naltiradi. Bozor iqtisodiyoti esa kadrlardan shunchaki diplomni emas, balki real, hayotiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qila oladigan, sohaga innovatsion yondashuvlarni olib kiradigan bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. OTM talabaga mehnat jarayonlari, mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi, ish o‘rinlarini tashkil etish texnologiyasi, mehnat jamoasini boshqarish ko‘nikmasi, tabiiy va mehnat resurslaridan

samarali foydalanish, davlatning ishsizlikni bartaraf etish va ijtimoiy himoya siyosatidan xabardor bo‘lish, daromadlar va byudjet mablag‘laridan foydalanish, moliya-bank tizimlari, soliq qo‘mitalari, buxgalteriya hisoboti ishlari, menejment va marketing asoslari bo‘yicha bilim berishga harakat qiladi. OTMlar uchun bozor iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash yoki uning talablarini joriy etish murakkab jarayondir. Bunda biryo‘la ikki jihatni nazarda tutish lozim: bir tomondan, ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, tashkillashtirish, ikkinchi tomondan, bozor talablarini muntazam o‘rganib borish, ularni OTM sharoitiga moslashtirib tatbiq etish. Bozor munosabatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri OTMga joriy etib bo‘lmaydi, bozor munosabatlarida barqaror ta’lim tizimini buzishga qaratilgan jihatlar ham borligini unutib bo‘lmaydi. Masalan, bozor munosabatlari o‘z molini tez va yuqori narxda sotishni yoqtiradi, agar ushbu talabni to‘g‘ridan-to‘g‘ri OTMga tatbiq etsak, ta’lim jarayonini kim pul to‘lasa, sotib olishga qodir bo‘lsa, ana shundagina kadr tayyorlab berish tartibiga o‘tishga to‘g‘ri keladi. Dunyoda bunday talab bilan ishlaydigan universitet yo‘q, hatto eng ilg‘or universitetlar (masalan, Kembrij yoki Bolonya universitetlari) ham davlat (munitsipial boshqaruv), homiylar, yirik metsenatlarning moddiy qo‘llab-quvvatlashiga tayanadi. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozorga chiqib o‘z “tovarlari”ni, “mahsulotlari”ni taqdim etavermaydi, balki ratsional boshqarish va o‘zining akademik imkoniyatlaridan kelib chiqib xizmatlarini taqdim etadi [4. Б. 101].

Pedagogika, madaniyat va ma’naviyat, harbiy sohalar uchun kadrlar tayyorlovchi OTMlar ham bozor konyunkturasi talablariga juda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Ushbu yo‘nalishlarda barqarorlik, hatto konservatizm ham ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Bozor konyunkturasi avvalo mehnat bozori bilan bog‘liqdir. Mutaxassislar fikricha, mehnat bozori “mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo‘lgan va band bo‘lmagan qismlari hamda ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlari) asosida *“mehnatga qobiliyatlarini”* xarid qilish, sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko‘p aspektli, o‘suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir” [5. В. 484]. Uning vazifalari: ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish; bozor uslubida xo‘jalik yuritishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish; mehnat resurslarinng oqilona bandligini ta’minlashga bevosita ta’sir ko‘rsatish; ishsizlar ish topshiga, ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga ko‘maklashish; ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o‘zgartirishdir [5. Б. 11]. Demak, OTMlar ushbu mehnat bozori konyunkturasi va talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashni amalga oshirishi lozim. Bu esa, tabiiy ravishda, OTMlarda maxsus marketing bo‘limi bo‘lishini taqozo etadi. AQSh, Germaniya, Fransiya va Rossiya davlatalridagi yirik universitetlarda maxsus marketing bo‘limlari mavjud bo‘lib, ular xizmat ko‘rsatishni bozor konyunkturasini o‘rganib borish orqali amalga oshiradilar. Shu maqsadda Yevropa universitetlari asotsiatsiyasi taklifiga muvofiq universitetlar tizimida:

1) tashkiliy o‘quv ishlari;

2) moliyaviy va marketing ishlari;

3) kadrlar bilan ishlash va ularni tayyorlash bo‘limi;

4) akademik avtonomiya bo‘limlari tashkil etilgan.

Ushbu model zamonaviy universitetlarda ham o‘z ifodasini topmoqda, ya’ni universitetlar faoliyati ana shu tizimlar orqali olib boriladi va baholanadi. Global ta’limda shakllanayotgan ushbu tizimlar mutlaq yangi emas, albatta. Ularda avvalgi tajribalar ham mujassamdir. Masalan, davlat tomonidan ajratiladigan byudjet mablag‘larining sarflanish tartibi, ya’ni moliyaviy ishlar, hisob-kitob, kadrlarga maoshlar to‘lash, moddiy rag‘batlantirish, safar xarajatlari, talabalar turar joylarini jihozlash va boshqa tadbirlar tartibi deyarli o‘zgarmay keladi.

Universitetlarning moliyaviy sarf-xarajatlar ishlarida davlat tomonidan o‘rnatilgan tarti-

blar barqaror tartiblar sifatida saqlanib turibdi. Global ta'limda universitetlarning moliyaviy mustaqilligi e'tirof etilayotgan, akademik mustaqillikni moliyaviy mustaqillik bilan mustahkamlash masalalari tadqiqotchilar e'tiborni tortayotgan bo'lsa-da, bu masalada global yaqinlik borligi hozircha sezilmaydi. Mustaqil rivojlanishga o'tgan yosh davlatlardagi OTMlar esa an'anaviy tartiblardan voz kechganlaricha yo'q.

Universitetlarning dars jadvallarini va soatlar taqsimotini, kadrlar tayyorlash tizimini mustaqil o'rnatishi akademik erkinlikning eng muhim yo'nalishidir. Global ta'lim g'oyasini qo'llab-quvvatlovchi Xalqaro akademiyalar uyushmasi ikki muhim tamoyilni ilgari suradi:

Birinchisi – universitet ichida yoki undan tashqarida haqiqatni aniqlashtirishga qaratilgan har qanday savolni kun tartibiga qo'yishda "to'liq erkinlik" ta'mnlanishi;

Ikkinchisi – universitetlar va ilmiy tadqiqot tashkilotlari o'z a'zolarining akademik erkinligini taqiqlash hamda xodimlarining chiqishlarini ularga qarshi chora sifatida ishlatish huquqiga ega emasligini o'rnatishdir.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha hanuzgacha Yevropaning aksariyat universitetlari faoliyatiga davlat aralashadi, ba'zilari esa davlat byudjetidan mablag' oladi. OTMning ichki ishlarida, hatto rektor yoki uning yordamchilarini saylashda ham davlat aralashuvi kuzatiladi. Universitetlarning barqaror ishlashi uchun uzoq muddatlarni o'z ichiga oladigan davlat moliyalashtirishi muhim o'rin tutadi.

Angliya universtitetlarida "institutsional avtonomiya" amal qiladi. Ushbu tamoyilga muvofiq erkinlik professorga ham, talabaga ham taalluqli bo'lib, ular o'rtasidagi ijodiy muloqotni, bir-birining qiziqish va tayyorgarliklarini hisobga olishga undaydi. AQSh, Angliya, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarda professorlarning asarlarini chop ettirish yoki og'zaki chiqishlariga hech qanday to'siq qo'yilmagan, biroq ularda ta'limga oid jarayonlarda milliylik, o'ziga xoslik mavjud. Masalan, Germaniyada talabalar darslarni tanlash huquqiga ega, ba'zi hollarda ular topshiriladigan imtihonlar vaqtini ham o'zlari belgilashi mumkin. Professorlar esa dars jarayonlarini o'zlarining ilmiy-nazariy konsepsiyalariga muvofiq tashkil etishi, ularni predmetlar doirasida asoslashi mumkin. Birinchi semestrda talabalar o'qishga majbur predmetlar bor, ikkinchi va undan yuqori kurslarda esa, ular predmetlarni erkin tanlaydilar. Bu erkinlk universitetning akademik erkinligi doirasidadir, shuning uchun talaba duch kelgan fikrni, universitetga qarshi qarashlarni targ'ib etib yurmasligi lozim. Fransiyada professorlar davlat xizmatchilari hisoblanadi. Ular global ta'limni shakllantirishdan ko'ra, davlat uchun zarur bo'lgan ichki ishllarni, ehtiyojlarni, talablarni bajarishga xizmat qiladilar. Ular ta'lim jarayonlarida siyosiy yoki diniy qarashlarni targ'ib etmasligi, belgilangan turtiblarga muvofiq davr o'tishi kerak. Fransiya Konstitutsion kengashi tomonidan o'rnatilgan tartibga muvofiq, professor va uning assistenti so'z erkinligi huquqidan to'la foydalanadilar, biroq ular "universitetning an'analarini, qonunlar talablarini, tolerantlik tamoyillari va obyektivlikni buzmasligi kerak". Universitet xodimlarining malakaviy yoki kasbiy ko'tarilishi ma'muriy qarorlar bilan emas, balki retsenziyalar orqali amalga oshiriladi. Rossiya universitetlarida akademik erkinlik RF Konstitutsiyasi va "Oliy va oliy ta'limdan keyingi kasb-kor ta'limi haqida"gi qonunga muvofiq kafolatlangan. Ularga ko'ra, har bir universitet va oliy malakali kadrlar tayyorlovchi institut o'z yo'nalishi bo'yicha zarur dasturlar ishlab chiqishi, kasb-kor yo'nalishini tanlashi, oliy attestatsiya komissiyasi va boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzishi, keng jamoatchilikni jalb qilgan holda o'zini o'zi boshqaruvchi organlar tashkil etishi, moliyaviy ishlari bo'yicha hisob-kitob berib borishi mumkin. Mazkur talablarda xalqaro tajribalar, global ta'lim bilan bog'liq jihatlar (masalan, darslarni erkin o'tish, zarur kadrlarni jalb etish, kontrakt asosida chet el olimlari bilan aloqalar o'rnatish, xalqaro reyting talablarini kuzatib borish, moliyaviy hisob qitob ishlarini e'lon qilib borish kabilar) shakllangani kuzatiladi [6. Б. 78].

Global ta'lim to'g'risida turlicha fikrlar mavjud, bu tizimning hali shakllanmagani, bu boradagi mulohazalar ko'pincha gipotetik xususiyatga ega ekani qayd etiladi. "Global ta'lim" degan tushunchaning o'zi hali bahsli,

pedagogik tajribalarini, ayniqsa, akademik mustaqillik prinsiplarini OTMlarga joriy etishga oid yondashuvlarni ikki guruhga ajratib o‘rganish mumkin. Birinchisi – substantiv mustaqillik, ikkinchisi – protsedur mustaqillik [10. Б. 95].

Substantiv mustaqillikka akademik va kadrlar mustaqilligi, ta’lim dasturlari tuzilishi, tadqiqotlar o‘tkazish siyosati, o‘qishga qabul qilish qoidalari, akademik xodimlarni tayinlash, akademik darajalarni berish kabilar kiradi. Protsedur mustaqillikka esa moliyaviy mustaqillik, byudjet moliyalashtirilishi, moliyaviy menejment, noakademik xodimlarni tayinlash, tovar mollari va xizmatlarni sotib olish, kontraktlar tuzish kabilar kiradi. Professor T.I.Ismoilov amalga oshirgan yondashuv biz uchun ham muhim, u rivojlangan Osiyo davlatlari pedagogik tajribalarini umumlashtirishga va har birining differensial xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun asosiy diqqatimiz har bir davlatdagi milliy pedagogik jarayonlar va to‘plangan etnopedagogik tajribalarga emas, bu mutlaq boshqa mavzu, balki akademik erkinlik bilan bog‘liq etnopedagogik jarayonlarga qaratilishi zarur.

XULOSA

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, global ta’lim muhiti ta’lim tizimiga, uni tashkil etish va boshqarishga, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlariga, axborot texnologiyalarini va ilg‘or modellarni joriy etish usullariga ta’sir etmoqda. Global ta’lim AQSh va Yevropa ta’lim modellari ta’siri ostida shakllanayotgani sir emas, milliy universitetlarning xalqaro reyting orqali o‘zini baholayotgani, Bolonya tizimi, HEMIS, kredit modul tizimiga o‘tayotgani, IELTS, GMAT, GRE, TOEFL kabi turli xalqaro, ko‘pincha Yevropa standartlarini tatbiq qilayotgani buning isbotidir. Ammo etnopedagogik jarayonlarni o‘rganish ko‘rsatadiki, global ta’lim milliy tarbiyaviy tajribalarni rad etishi, ularni siqib chiqarishi mumkin emas, goho ta’limni modernzatsiyalash deganda ana shu noxush holni nazarda tutishadi. Rivojlangan Osiyo davlatlaridagi etnotajribalar, ulardagi akademik va moliyaviy erkinlik universitetlarning samarali ishlashiga yordam berayotganini tasdiqlaydi. Davlat ularning mustaqilligini nafaqat kafolatlaydi, shu bilan birga, ularning bosh buyurtmachisi funksiyasini ham bajaradi. Demak, davlat ta’lim tizimiga buyurtmalari orqali ta’sir etadi va boshqaradi, akademik erkinlik esa universitetlarga erkin tarzda darslarni tashkil etish, kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa universitet jamoasiga katta mas’uliyat yuklaydi, OTMning mavqeyi, kelajagi, jamiyatdagi o‘rni, kadrlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi, ilmiy ishlanmalari bilan hudud taraqqiyotiga xizmat qilishi uning zimmasidadir. Etnopedagogik tajribalarni davom ettirish, ularni zamonaviy ta’lim jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish va shu tariqa jamiyat manfaatlariga xizmat qilish mustaqil OTMlarning xususiyatlariga va funksiyalariga aylanadi. Shu bilan birga chet el tajribalarida insonning ma’naviy-ruhiy, axloqiy xususiyatlari har doim ham hisobga olinaverilmasligini, bu hol ta’lim va tarbiya jarayonlarini murakkablashtirayotganini unutmaslik kerak. Ta’limni sun’iy tarzda murakkablashtirish, tabiat va hayotdan, insonning ma’naviy-ruhiy va axloqiy ehtiyojlaridan uzoqlashtirish inson shakllanishiga salbiy ta’sir etishini chet ellik pedagoglar, olimlar ham tasdiqlashadi. Demak, ta’limni modernizatsiyalash shiori ostida etnopedagogik tajribalarni siqib chiqarish shaxs tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini unutib bo‘lmaydi. Rossiya universitetlariga joriy etilayotgan g‘arb ta’lim modellari, Bolonya tizimi etnopedagogik tajribalardan yiroqlashmaslik zarurligini isbotlamoqda. Shuning uchun ham keyingi ikki yil ichida, masalan, Rossiyada, ulardan voz kechib, etnopedagogik tajribalardan keng foydalanish siyosatiga o‘tildi. G‘arb o‘z tasavvurlari va ideallarini qabul qilmaydigan har qanday milliy davlatga tazyiq o‘tkazishdan qaytmaydi, u liberal demokratik g‘oyalar ostida o‘zining “mutlaq haq”ligini isbotlashga tayyor. Shunday murakkab vaziyatda xalqlar o‘zining tarixiy-madaniy va etnopedagogik tajribalariga murojaat etib, o‘zlarining mustaqilligini, taraqqiyotini ta’minlash yo‘lini tutishi tabiiy holdir.

Adabiyotlar:

1. *Lankford E.L*. Freedom and Ourage in Art Education. // Journal of Aesthetic Education, 1994. – №28(4). – Pp. 52–62.
2. *Абдураҳмонов Қ.Ҳ., Холмўминов Ш.Р.* Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. – 231 б.
3. *Калхун К.* Университет и общественное благо // Прогнозис, 2006. – № 3 (7). – С.11–16.
4. *Edwards R., Usher R*. Globalization and Pedagogy Spase Plase and Identity. – New York, 1999. – 602 p.
5. *Holmberg B*. On the Potential of Distance Education in the Age of Information Technology.// Journal of Universal Computer Science, vol. 2, no. 6 (1996), 484-491.
6. *Фуллер С*. Социология интеллектуальной жизни: карьера ума внутри и вне академии. – Москва: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2018. – 300 p.
7. *Шрейдер Ю.А*. Экспертные системы: их возможности в обучении // Вестник высшей школы, 1987. – № 2. – С. 430–435.
8. *Кашаев А.А*. Дистанционное образование как фактор формирования единого мирового образовательного пространства: Автореф. дисс. ...канд. пед. наук. Рязань: РГУ, 2003. – 50 с.
9. *Keith K.M.* Faculty Attidudes Toward Academic Freedom Tenure, Ttaching and Research, 1996. – 235 p.
10. *Исмоилов Т.И.* Олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш жараёнларига академик мустақиллик принципларини жорий этиш истиқболлари (ривожланган давлатлар тажрибаси мисолида): Пед. фан. докт. (DSc) диссертацияси. – Чирчиқ, 2023. – 154 б.

GLOBAL EDUCATION AND ITS ASPECTS RELATED TO ACADEMIC FREEDOM

Sh.Sh. Xudayberganov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2023. 2(70). 25-32.

[1]Urganch State University, Urganch city, 220100, Hamid Olimjon str., 14 (Uzbekistan). E-mail: urdu@umail.uz

Keywords. Market economy, academic freedom, global education, academic autonomy, academic freedom, political freedom, economic freedom.

According to the researchers, higher education institutions cannot stand outside the market economy, the market democracy established in the society, in turn, cannot fail to influence the system of education, especially higher education, personnel training. Higher education institutions, engaged in the preparation of highly educated personnel necessary for the national economy and social spheres, arise from the demands of the society, and direct each of their personnel to these demands. The market economy requires personnel not only to have a diploma, but also to have knowledge that can solve real, vital, social and economic problems, and bring innovative approaches to the field.

Higher education institutions provide students with labor processes, labor distribution and cooperation, workplace organization technology, labor team management skills, effective use of natural and labor resources, awareness of the state’s unemployment elimination and social protection policy, income and requires knowledge of the use of budget funds, financial and banking systems, tax committees, accounting reporting, management and marketing fundamentals. Supporting the market economy or introducing its requirements is a complex process for higher education institutions.

Higher education institutions that prepare personnel for pedagogy, culture and spirituality, and military fields are also very careful with the requirements of the market situation. In these directions, stability, even conservatism, has a positive significance.

There are different opinions about global education, which show that this system is not settled, and opinions about them are often of a hypothetical nature. The concept of "global education" itself is still controversial, its main requirements and criteria have not been determined. Jan Amos Comenius' concept of "Educating everyone about everything and everything" is the basis of this global education. According to him, everyone, every person can be taught anything, knowledge, because all people are given the opportunity to know.

There are such factors in pedagogy that it is difficult to say that they are only the result of external global influence. For example, family education relies primarily on stable views, stereotypes, methods of education, admonitions and punishments in the religious environment and in the family. Global education ignores these pedagogic experiences, relying on the ideal Western-formed procedures, norms and self-management, ped-technologies. Ethno-pedagogical experiences and global education do not always correspond to each other. This conflict can be resolved on the basis of universal human values, but at the present time, it is not observed that research is being conducted to solve these problems. The formation of social qualities in a person requires taking into account not only pedagogical processes and technology, but also other factors of social importance and orientation (economic, political, historical, educational, ethno-pedagogical).

References:

1. Lankford, E.L. (1994) Freedom and Ourage in Art Education. *Journal of Aesthetic Education*. 28(4). Pp. 52-62.

2. Abdurahmonov, Q.H., Xolmo'miov, Sh.R. (2004) *Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi* [Labor economics and sociology]. Tashkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

3. Kalhun, K. (2006) Universitet i obshchestvennoe blago [University and public good]. *Prognozis.* 3(7). Pp. 11-16.

4. Edwards, R., Usher, R. (1999) Globalization and Pedagogy Spase Plase and Identity. New York.

5. Holmberg, B. (1996) On the Potential of Distance Education in the Age of Information Technology. Journal of Universal Computer Science. Vol. 2. No. 6. Pp. 484-491

6. Fuller, S. (2018) Sociologiya intellektualnoj zhizni: karyera uma vnutrti i vne akademii [Sociology of Intellectual Life: A Career of the Mind Inside and Outside the Academy]. Moscow: Izdatelskij dom 'Delo' RANHiGS.

7. Shrejder,Y.A. (1987) Ekspertnye sistemy: ih vozmozhnosti v obuchenii [Expert systems: their learning opportunities]. *Vestnik vysshej shkoly*. 2. Pp. 430-435.

8. Kashaev, A.A. (2003) *Distanncionnoe obrazovanie kak faktor formirovaniya jedinogo mirovogo obrazovatelnogo prostranstva* [Distance education as a factor in the formation of a single world educational space]. Abstract of Dissertation for the Candidate of pedagogical Sciences. Ryazan.

9. Keith, K.M. (1996) Faculty Attidudes Toward Academic Freedom Tenure, Ttaching and Research.

10. Ismoilov, T.I. (2023) Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlariga akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etish istiqbollari (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida) [Prospects of introducing the principles of academic independence to the processes of organization and management of higher education institutions (as an example of the experience of developed countries)]. The dissertation for Doctor of pedagogical Sciences (DSc). Chirchiq.

Muallif haqida ma'lumot:

XUDAYBERGANOV Shuhrat Shavkat o'g'li – Urganch davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: sh.xudayberganov.urdu@mail.ru